

## INTERTEKSTUALLIK VA BADIY MATN

*O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi**O‘zbek filologiyasi va folklori instituti**O‘zbek adabiyoti yo‘nalishi tayanch doktoranti**Sharipova Tursunoy Bozor qizi***ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada intertekstuallik hodisasi badiiy matn doirasida tahlil etiladi.

Xususan, o‘zbek she’riyatida allyuziya, reminissensiya, epigraf kabi intertekstual birliklarning qo‘llanish usullari hamda ular orqali matnning estetik, semantik boyishi yoritiladi. Rauf Parfi va Mirzo Kenjabek ijodi misolida bu birliklarning funksional ahamiyati ilmiy tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** intertekstuallik, badiiy matn, allyuziya, reminissensiya, epigraf, Rauf Parfi, Mirzo Kenjabek, intertekstual birlik

**KIRISH**

XX asrning ikkinchi yarmida adabiyotshunoslikda intertekstuallik atamasi muhim ilmiy tushunchaga aylandi. Yu. Kristeva tomonidan ilgari surilgan bu g‘oya matnlararo aloqani tushunishda yangi nazariy asos bo‘ldi. Intertekstuallik badiiy matnda muallif bilan o‘quvchi o‘rtasidagi muloqotni chuqurlashtiradi va asar semantik qamrovini kengaytiradi. Ushbu maqolada intertekstuallik o‘zbek she’riyatidagi namunalarda, xususan, Rauf Parfi va Mirzo Kenjabek asarlari asosida tahlil qilinadi.

**Adabiyotlarni o’rganish**

XX asrning so’nggi choragida adabiyotshunoslikka **intertekstuallik** tushunchasi kirib kela boshladi. Bu tushuncha atama sifatida ilk bor 1967-yilda fransuz struktur tadqiqotchisi Yu. Kristeva tomonidan olib kirildi. Kristeva o‘zining intertekstuallik konsepsiyasini 1924-yilda yozilgan M.Baxtinning asarini qayta ko’rib chiqish asosida ishlab chiqdi.

**Asosiy qism**

Intertekstuallik – bu matnlarning o'zaro aloqasidir. Ikki yoki undan ortiq mualliflarning boshqa muallif matnidan joy olishi, og'zaki iboralarni aks ettirish hodisasi odatda intertekst deb ataladi. Badiiy matndagi intertekstuallik hodisasi ko'plab badiiy asarlar uchun tabiiy formuladir: yozuvchilar o'zlarining matnlari, shu jumladan, iqtiboslar, parodiyalar, plagiat kabilarni bitta tushuncha – intertekst tushunchasi bilan birlashtiradilar. O'tmishdoshlar va zamondoshlarning asarlaridan namunalar keltirish, bir asarda boshqa bir matnning izi ham intertekstuallikdir. Albatta, yozuvchi intertekstni o'z asariga olib kirar ekan, bundan muayyan bir maqsad ko'zlaydi. Avvalo, kiritilayotgan begona matn umumiyligi matn ma'nosiga mos bo'lishi kerak. Shunga ko'ra bir necha intertekstual birliklardan foydalanish mumkin:

- Allyuziya.
- Remissensiya.
- Iqtiboslar.
- Parodiya.
- Tarjima.
- Taqlid.
- Havolalar.
- Epigraf.

Ushbu maqolamizda yuqoridagi intertekstual birliklardan allyuziya, reminissensiya, epigraf kabi ko'rinishlariga bir qancha misollar keltirish orqali fikrimizni dalillashga harakat qilamiz.

"O'zbek badiiy matnlarida uchraydigan intertekstlarni shakliy jihatdan quyidagicha tasniflashga harakat qildik: *allyuziya, reministsentsiya, epigraf, sarlavha, iqtibos (havola, sitata)*. Intertekst sifatida o'zbek badiiy matnlarida bu shakllar faol uchraydi va aynan ular intertekstuallikning barcha xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi".<sup>1</sup> Albatta, adib bu ko'rinishdagi intertekstual birliklarni qo'llashdan ko'zda tutgan maqsadi bor. Ushbu yozilgan asarda qo'llanilgan birliklar

<sup>1</sup> Xomidova M. Badiiy matn pertsepsiyasida intertekstuallik. Fil.fan. b.cha falsafa d.ri – diss.- T. 2021. Bet 36.

badiiy estetik jihatdan kitobxonga ma'qul bo'lishi, ijodkorning badiiy mahoratini ko'rsatishi va shu bilan birgalikda kitobxonga tushunarli bo'lishi ham katta ahamiyatga ega. Hozir ana shunday birliklardan allyuziyani ko'rib o'tsak. *Allyuziya* (lot. Allusio – ishora, hazil) – barchaga tanish deb hisoblangan real siyosiy, maishiy, tarixiy yoki adabiy faktga ishora qilishga asoslangan stilistik usul. Mohiyatan sharq mumtoz she'riyatida keng qo'llangan talmeh san'atiga yaqin keladi.<sup>2</sup> Demak allyuziya biror bir asar qahramonlari, o'tmishda bo'lgan voqealarga ishora ekan. Bunda yozuvchi bu birlikdan ko'zlagan maqsadi o'zi ifodalamoqchi bo'lgan fikrni yanada dalillash maqsadida, o'quvchi xotirasida tasviriylik uyg'otish niyatida foydalanadi. O'quvchi asarni o'qiydi, ma'nosiga tushunishga harakat qiladi, unda keltirilgan allyuziv nomlar esa uning mazmunini yanada boyitadi, tushunilishini osonlashtiradi. Shu o'rinda allyuziyaga bir qancha misollarni ko'rib o'tsak:

Inon, ot o'ynatib bir tong mahali

Sarbozlarim kelar **G'irotlarida.**

Zangor to'lqinlarda otarmiz quloch,

Yana-da ketarmiz yiroq-yiroqqa.

Rauf Parfi qalamiga mansub ushbu she'riy parchada G'irot nomi keltirilgan. Shoир nima uchun aynan **G'irot** nomini keltirdi? - degan tabiiy bir savol uyg'onadi. Xolbuki, boshqa bir ot nomlaridan ham foydalansa bo'lar edi. Ma'lumki, bu nom xalq dostonida uchraydigan otning nomi. *Zangor to'lqinlarda otarmiz quloch* misrasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, dostonlardan bilamizki, bu otning qanotlari ham bor, shoир aynan shuning uchun ham "Zangor to'lqin", ya'ni bulutlarga quloch ochishi haqida yozadi. Demak, o'quvchi ongida afsonaviy ot va u keltirilgan doston, unda tasvirlangan otning ko'rinishlari gavdalanadi. Bu esa, o'z navbatida, she'rning tasviriylik darajasini oshirish uchun xizmat qiladi. Keyingi bir she'rga diqqatimizni qaratsak:

HAMLET

So'ldirma! Dunyoga shafqat qil, qizg'on!..

Shekspir

<sup>2</sup> Д. Куронов ва бошк. Адабиётшунослик лугати. Т. Akademnashr.2013. б 27.

1. Faqat vijdon bilan o'rtanar **Hamlet**,  
Doniyo — zindonga, qarab turar lol.  
Biz ham shu sahnaga tikilamiz tek,  
Bizni ham o'rtaydi qadimiy savol.

Rauf Parfi qalamiga mansub ushbu parchaning sarlavhasiyoq intertekstni hosil qiladi. Sarlavhani o'qigan kitobxon she'rning butun mazmuniga tushunib ulguradi. Undan so'ng esa epigraf sifatida esa aynan Shekspir asarining o'zidan iqtibos sifatida foydalanadi. Epigraf ham she'r mazmuniga uyg'un holda tanlangan. Bu ham intertekstuallikning bir ko'rinishidir. Shoир ifodalamochi bo'lган fikrini, she'rning mazmunini, avvalo, sarlavhada so'ngra epigrafda oydinlashtirishga harakat qilgan. She'r sarlavhasi "**Hamlet**", demak kitobxon angladiki, she'r Shekspiring tragediyasi qahramoni haqida. Undan so'ng epigraf ham aynan Shekspir asaridan olinyapti. **So'ldirma! Dunyoga shafqat qil, qizg'on!..** Shekspir qalamiga mansub ushbu sonet Hamletning achchiq, alamlı taqdiri haqida yozilgandek go'yo. She'r ichida esa Hamlet, Ofeliya kabi personajlarning keltirilishi ham intertekstuallik hodisasiga yaqqol misol bo'la oladi. Navbatdagi she'rda esa:

#### MUHABBAT

*Og'ir, sevganimdan rashkim ham og'ir,*  
Ul g'oyib ilmdan olgayman saboq.  
Axir nohaq edi, **Otello**, axir,  
Sevgilim, shafqatsiz muhabbatga boq!  
Sodiq **Desdemona**, ey jigarpora,  
Nechun **bo'g'izlandi muqaddas tuyg'u**,

Nechun qatl etildi sevgi bechora?!

Ushbu she'rni o'qir ekanmiz, unga kiritilgan allyuziv nomlarni ko'rganimiz zamon asar va uning qahramonlari, ularning taqdiri beixtiyor yodimizga keladi. Otello, Desdemona va Desdemona kabi qahramonlar kitobxonlar diqqatini tortadigan, juda mashxur, xotirlanishi oson personajlardan hisoblanadi. Demak, kiritilgan intertekstni

tushunish o'quvchidan ortiqcha bilim yoki harakatni talab etmaydi. Bu esa shoir ko'zlagan maqsadini amalga oshira olganidan dalolatdir. She'rning ilk bosh misralaridanoq ***Og'ir, sevganimdan rashkim ham og'ir,*** misrasi bilan boshlanadi. "Otello" tragediyasidan ma'lumki, Otello va Dezdemona munosabatlarining yomonlashuviga ham aynan Otelloning kuchli rashki sabab bo'lgan edi. Keyingi misralarda esa shoir Otello shaxsiga munosabat bildirib o'tadi:

Axir nohaq edi, ***Otello***, axir,  
Sevgilim, shafqatsiz muhabbatga boq!

Keyingi misralarda esa Dezdemona va uning asardagi achchiq qismati, ya'ni bo'g'izlanganiga ishora qiladi. Nechun ***bo'g'izlandi muqaddas tuyg'u...***

Shoir Mirzo Kenjabek ijodida ham bunga o'xshash misollar talaygina. Ularni ham tahlil markaziga tortsak:

JAHON O'ZBEKLARIGA

Turkiy kuyda Dulbarjinning yodi bor,  
***Qoshg'ariy*** ham ***Mir Alisher*** dodi bor,  
Til yo'qotgan zotning qanday zoti bor? –  
Tilingizni asrang, ketgan o'zbeklar!  
***Alla*** ko'rmay o'sgan «qulun» qulunmas,  
***Yor-yor*** ko'rmay tushgan kelin kelinmas,  
Hali sizga yotlik makri bilinmas,  
Tilingizni asrang, ketgan o'zbeklar.

Bu she'rda reminissensiya orqali intertekst bo'laklari shakllangan ya'ni "reministsentsiya – adabiyotdagi adabiyotlar obrazlaridir. Uning eng ko'p tarqalgan turi aniq yoki noaniq, "qo'shtirnoqqa olingan" yoki tagma'no orqali anglashiladigan yashirin parchadir. Reministsentsiyalar muallif tomonidan asarga ongli tarzda va biror maqsadni ko'zlab kiritilishi yoki uning irodasidan tashqari, beixtiyor kirib qolishi (xotirlanishi) ham mumkin".<sup>3</sup> She'rning ilk misrasi ***Turkiy kuyda Dulbarjinning yodi bor***, deya boshlanadi. Dulbarjin biz bilamizki qadimgi turkiy yozuvning yana bir nomi

<sup>3</sup> Умирова Г.Х. Зулфия ижодига адабий таъсирнинг самаралари // Xorijiy filologiya. 2019. №1. – B. 44.

hisoblanadi. She'rning boshlanishiyoq turkiy xalqlarning qadimiylar nomoddiy merosini tanishtirish bilan boshlanadi. Keyingi misralarda ham bular davom etadi, turkiy tilining rivojlanishiga hissa qo'shgan insonlar va ularning asarlari eslanib o'tiladi. Masalan, Qoshg'ariy, Mir Alisher kabi president nomlarning keltirilishi ham ular haqidagi ma'lumotlarni xayolimizda tiklaydi. Undan so'ng "Alla", "Yor-yor" kabi xalq qo'shiq nomlarining keltirilishi ham she'rning ma'no jihatdan boyishiga xizmat qilgan. O'quvchining ongida esa bu qo'shiqlarni qaytadan jonlantirgan. Mirzo Kenjabekning keyingi she'riga diqqat qarataylik:

### XALQIM QASIDASI

Tatabbu'

Tarixlarga ko'mdim men ham o'zimni,  
Xalqim, senga bergen ekan to'zimni,  
Dedim tunlar tinglab «*Qaro ko'zim*»ni:  
Bitarmikan hech armoni o'zbekning!

«*Oltun yoruq*» sochgan turkiy sadolar,  
«*Xo'bi bitik*» toshidagi nidolar,  
Bu kun buyuk tilsim bo'lgan imlolar –  
Kechmishlardan bir nishoni o'zbekning.

Necha ovul, kentlardagi shevasi –  
Bu «*Devonu lug'atit-turk*» mevasi,  
Olislarni ko'zlab-ko'zlab tevasi,  
Borayotir zo'r karvoni o'zbekning.

Shoir she'rini bir o'qigan o'quvchining diqqatini tortuvchi mashxur "Qaro ko'zum" jumlesi shu radifli Navoiyning g'azaliga ishora qilmoqchi ekanini tushunadi. Birgina shu jumladan qaysi g'azal va g'azal muallifi esimizga tushadi. Albatta, kiritilayotgan intertekst o'quvchi uchun tushunarlibo'lishi juda muhim ahamiyatga egadir. Agar o'quvchi uchun notanish, uning dunyoqarashi uchun begona bir intermatn

tanlanganda edi asar saviyasi bir pog'ona tashgan bo'lar edi. Shu jihatlarni hisobga olgan holda ushbu she'rda qo''langan "Qaro ko'zum" jumlesi intermatn sifatida o'zini oqlagan deya ayta olamiz. Bundan tashqari she'rga kiritilgan «*Oltun yoruq*», «*Xo'bi bitik*», «*Devonu lug'atit-turk*» asar nomlarining qo'llanilishi ham albatta, bu asarlar va ularni bitgan shaxslar haqida ma'lumot yetkazishdan iboratdir.

### Natija

Intertekstuallik hodisasi badiiy matnda fikrning chuqurroq anglanishi, obrazlarning tarixiy-madaniy kontekstda o'qilishi va muallif pozitsiyasining kengroq ifodalanishiga xizmat qiladi. Rauf Parfi va Mirzo Kenjabek ijodidagi intertekstual birliklar o'zbek poeziyasining boy semantik qatlamga ega ekanligini tasdiqlaydi. Shunday qilib, intertekstuallik nafaqat uslubiy vosita, balki badiiy tafakkurning ko'rinishi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bir so'z bilan aytganda, intertekstuallik hodisasi har bir matnning tushunilishi va badiiyatini oshiruvchi bir badiiy vositalardan biridir. Yuqorida kabi misollar har bir asarda uchrashi-- mumkin bo'lgan ba'zi namunalardir. Lingvistik tadqiqotlarda intertekstuallik matnning eng muhim kategorik xarakteristikasi sifatida qaraladi. "O'zimizning" va "birovning" so'zlarini o'zaro qorishiq shaklda aks ettiriladi. Adabiyotshunoslikda intertekstuallik postmodern uslubni baholash uchun muhim asos bo'lib, u matnni kotirovkalarining mozaikasi sifatida singishini, tizimli semantik ta'sirga ega bo'lishini ta'minlaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Baxtin M.M. Matn va muloqot nazariyasi. – Moskva: Progress, 1986. – 254 b.
2. Д. Куронов ва бошқ. Адабиётшунослик луғати. Т. Akademnashr.2013. – б 412.
3. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – Т: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. – 10 jild.
4. Shekspir U. Hamlet. Tragediya. – T: Yozuvchi, 1985. – 120 b.

5. Kenjabek M. Xushxabar. – T: Navro‘z nashriyoti, 2018. – 176 b.
6. Parfi R. Sakina: she’riy to‘plam. – T: Muhammarr nashriyoti, 2013. – 376 b.